

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

## O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI KO‘MAKCHILARNING QIYOSIY TAHLILI

(T.QAYIPBERGENOVNING “QORAQALPOQNOMA” ASARI MISOLIDA)

**M.Xudayarova**

Nukus DPI dotsenti, f.f.n.

**S.Ibrohimova**

Nukus DPI magistranti

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi ko‘makchilar T.Qayipbergenovning “Qoraqalpoqnoma” asari misolida qiyosiy o‘rganildi.

*Kalit so‘zlar:* o‘zbek tili, qoraqalpoq tili, T.Qayipbergenov, “Qoraqalpoqnoma” asari, ko‘makchi so‘zlar, sof, vazifadosh, qiyosiy tahlil.

O‘zbek va qoraqalpoq tillarida ko‘makchilar ot, olmosh va harakat nomidan keyin kelib, uni hokim so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Har ikki tilda ham ko‘makchi alohida gap bo‘lagi bo‘lolmaydi, o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birgalikda gapning biror bo‘lagi vazifasida keladi. O‘zbek tilidagi ko‘makchi ham, qoraqalpoq tilidagi *tirkewish* ham so‘zdan ajratib yoziladi.

Qoraqalpoq tilida ko‘makchi (*tirkewish*)ga quyidagicha ta‘rif beriladi: *Atliq ha‘m atliq ma‘nisidagi so‘zlerge dizbeklesip, olardi basqa ma‘nili so‘zlerge baylanistiratug‘in ko‘mekshi so‘zler tirkewishlik xizmetti atqaradi* [1:220].

Hozirgi o‘zbek tilida ko‘makchilar shakliy va bajaradigan vazifasi jihatidan 3 turga ajratiladi:

- a) sof ko‘makchilar;
- b) yarim ko‘makchilar;
- d) qo‘shimchasimon ko‘makchilar [5:297].

Hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida ham ko‘makchilar 3 guruhga bo‘linadi:

- 1) tipkilikli *tirkewishler*, 2) atao‘yish *tirkewishler*, 3) *feyl tirkewishler*.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan *bilan, uchun, sari, kabi, singari, sayin, qadar, orqali* sof ko‘makchilar bo‘lib, ular tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lashga xizmat qiladi. Sof ko‘makchilar boshqa so‘zlarga birikkan holda turli munosabatlarni anglatadi. Jumladan, **bilan** ko‘makchisi o‘zbek tilida asosan ko‘makchi, ba‘zan bog‘lovchi vazifasida ishlatiladi. Shuning uchun bu ko‘makchi turi bugungi kunda yordamchi so‘zlardan birining o‘rnida ikkinchisi qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan ko‘makchi-bog‘lovchi atamasi ostida ham o‘rganilmoqda [5:298].

Qoraqalpoq tilidagi *menen* (*benen, penen* fonetik variantlari) ko‘makchisi bosh kelishikdagi so‘zlarni boshqarib, o‘rin, vaqt va sabab ma‘nolarida qo‘llaniladi [1:221].

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi ko‘makchi so‘zlar juda o‘xshash. Buni To‘lepbergen Qayipbergenovning “Qoraqalpoqnoma” asari misolida ko‘rishimiz mumkin.

*Asliyatda:* Sonda g‘ana kisi o‘z napesin basqalardin napesi **menen**, xalqinin napesi **menen** qosa aladi [3:5].

*O‘zbekcha tarjimasida:* Shundagina har bir tirik jon boshqa odamlar **bilan**, xalqi **bilan**, butun inson **bilan** hamnafas bo‘la oladi [4:5].

O‘zbek tilida *bilan* ko‘makchisi biror harakatning bajarilishida shaxs, predmetlarning birgaligini, vosita, payt, sabab, holat ma‘nolarini ifodalaydi [5:298].

Ushbu ikkala gapda ham *bilan* ko‘makchisi harakatning bajarilishida birgalik ma‘nosini ifodalagan.

O‘zbek tilida **uchun** ko‘makchisi atalganlik, maqsad, sabab, evaz kabi ma‘nolarda qo‘llanilib, to‘ldiruvchi, maqsad, sabab holi vazifalarida keladi [5:299].

Qoraqalpoq tilidagi *uchun* ko‘makchisining ma‘nosi shunday ta‘riflanadi: “Ataw sepligindegi a‘tliq ha‘m iyelik sepligindegi almasiqlar menen dizbeklesip kelip, isha‘rekettin’ birewga ya bir na‘rsege arnalg‘anlig‘in anglatadi”[1:222].

*Asliyatda:* Men ertekke qizig‘atug‘in edim, **sol ushin** ol qaptalimda aste-aste adimlap jurip bir ertek basladi [3:7].

*O‘zbekcha tarjimasida:* Ertakka o‘lgudek qiziqmaymanmi, o‘shanda onam meni alahsitish **uchun** yetaklagancha ertak boshladi [4:6].

Asarning asliyatidagi **sol ushin** sabab bog‘lovchisi (nətiyje dəneker) o‘rnida, o‘zbek tilidagi tarjimasida *uchun* ko‘makchisi qo‘llanilgan va maqsad ma‘nosini anglatgan.

O‘zbek va qoraqalpoq tillarida *kabi (kibi), singari (sıyaqlı), yanglig‘ (yañlı)* ko‘makchilari bir narsani boshqa narsaga o‘xshatish, chog‘ishtirish ma‘nosini anglatadi. Masalan, *asliyatda:* Tinishlang‘an gezimde arg‘i jag‘ag‘a qansha qaldi eken dep qarasam, darya ushi – qiyiri joq aspang‘a megzeydi, al anama qarasam, oning ko‘zleri buo‘zaq – buo‘zaq qara bulutlar arasinan jaltirag‘an qos juldiz **kibi** mag‘an qadaladi [3:7].

*O‘zbekcha tarjimasida:* Vahimani unutish uchun narigi qirg‘oqqa qancha qoldi ekan, deb, soyga qarayman: soy chek-u chegarasi yo‘q osmonga o‘xshaydi: yana onamga qarayman: ko‘zlari o‘rkach-o‘rkach qora bulutlar orasidan miltiragan qo‘sh yulduz **misol** menga javdiraydi... [4:6].

Yuqorida berilgan gaplardan ko‘rish mumkinki, asliyatda o‘xshatish ma‘nosini bildiruvchi *kibi* ko‘makchisi o‘rnida, tarjimada arab tilidan o‘zlashgan *misol* ko‘makchisidan mohirona foydalanilgan.

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘zbek tilida *old, oldin, orqa, ro‘para, qarshi, avval, keyin, so‘ng, oxir, tomon, ost, ust, tag, tepa, yon, uch, ich, o‘rta, ora* kabi o‘rin va payt ma’noli otlar, *bosh, qosh, lab, og‘iz, oyoq, qorin* kabi tana a‘zolari nomlari, *qariyb, bo‘ylab, boshlab, ko‘ra, deya, deb, atab, o‘xshab* kabi ravishdoshlar juda ko‘p hollarda ko‘makchi vazifasida keladi va ko‘makchilar xazinasining boyishiga sabab bo‘ladi. Bunday hollarda bu so‘zlar nisbiy yoki yarim ko‘makchi sanalib, o‘zi birikib kelgan so‘z bilan birgalikda bir gap bo‘lagi, ko‘pincha, hol bo‘lib keladi [5:301].

Qoraqalpoq tilida *sebepli, boyinsha, ustinde, arqasinda* tirkewishleri atliq, almasiq, ha‘reket ati feyillerga dizbeklesip kelgen sebep ma‘nisi bildiradi [1:223]. Masalan, *asliyatda: Ertek boyinsha: biz jasag‘an jer o‘g‘iri keng, ulken. Oni kute taynapir ko‘k o‘giz koterip turipti* [3:7].

**O‘zbekcha tarjimasida:** Ertakka ko‘ra, biz yashayotgan Yer yassi va keng. Uni bahaybat Ko‘k ho‘kiz shohlarida ko‘tarib turarkan [4:6].

Ko‘makchilardan *bilan, uchun, kabi, singari, yanglig‘, sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, chog‘li, bo‘ylab, haqida, to‘g‘risida* kabilar o‘zlari birikib kelgan so‘zlarga hech qanday qo‘shimchasiz bog‘lanadi; *tomon, qadar, qarshi, qaraganda, doir; binoan, qaramay* kabi ko‘makchilar o‘zlari birikib kelgan so‘zdan - **ga** qo‘shimchasini qabul qilishni talab qiladi [5:301].

**Qarag‘anda** tirkewishi baris sepligindagi atawishlarg‘a dizbeklesip salistiriwshiliq ma‘ni beradi [1:225]. *Haqqinda, tuwrali, jo‘ninde, jayinda* tirkewishleri o‘zleri dizbeklesip kelgan so‘zleri menen birge is-ha‘reketin’ kim, ne, kimler, neler jo‘ninde ekenligin bildirip, qiya toliqlawish ma‘nisine jaqin keledi. Bunday jag‘dayda olardi tabis sepligindagi so‘zler menen o‘zlestiriwge bolmaydi [1:221, 222].

**Asliyatda:** *Sho‘rtanbay! Bul daryanin’ ati. Menin’ balaliq gezlerimde lipildep tolip ag‘atug‘in edi. Baliqlardin’ basqa tu‘rlerine qarag‘anda sho‘rtang‘a bay bo‘lg‘an.* [3:53]

**O‘zbekcha tarjimasida:** *Cho‘rtanboy! Bu so‘z asli daryoning nomi. Bolalik paytlarimda limma-lim bo‘lib oqardi. Boshqa baliqlarga qaraganda cho‘rtanga boyroq bo‘lgan ekan* [4:60].

**Asliyatda:** *...nabada o‘zim dep xalqim haqqinda naduris bir narse aytip salaman ba degen keuip penen o‘ylanaman* [3:33].

**O‘zbekcha tarjimasida:** Mabodo o‘zim deb xalqim **haqida** nomaqbul gap aytib qo‘ymasmikinman, qabilidagi gumon iskanjasida qolaman [4:35].

Umuman, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi ko‘makchilarning shakllanishi juda uzoq davrlardan boshlangan bo‘lib, u yoki bu ko‘makchilarni hozirgi barcha turkiy

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tillarda uchratish mumkin. Turkiy tillar morfologiyasi, xususan, ko‘makchilarni ilmiy asosda tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar:

1. Dawletov A. Hazirgi qaraqalpaq adabiy tili. – No‘kis: Bilim, 2010.
2. Dadaboyev X.A., Xolmanova Z.T. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2015. - 223 b.
3. Qayipbergenov T. Qaraqalpaqnama. – Nokis: Qaraqalpaqstan, 1998.
4. Qayipbergenov T. Qoraqalpoqnoma. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1997.
5. Sayfullayeva R., Qurbonova M., Mengliyev B., Boqieva G. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T., 2005. - 181 b.